Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



INVESTITSIYA LOYIHALARINI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI



Haydarov O'ral Axmadovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsiya loyihalarini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish yo'llari hamda uning afzalliklari tahlili va rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada islomiy moliyalashtirish xizmatlaridan foydalanish yo'llarini mamlakatimiz iqtisodiyotida foydalanishni rivojlantirish istiqbollaridagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, islom moliyasi, mushoraka, sukuk, mudoraba, murobaha, moliyalashtirish, investitsiya loyihalari, islom moliya instrumentlari.

Abstract: This article discusses ways to finance investment projects using Islamic financial instruments, as well as an analysis of its advantages and improvement of development prospects. The article also presents the existing problems and prospects for the development of the use of Islamic financial services in the economy of our country, as well as the author's approaches and proposals to overcome them.

Key words: investments, Islamic finance, musharaka, sukuk, mudaraba, murabaha, financing, investment projects, Islamic financial instruments.

Аннотация: В этой статье рассматриваются способы финансирования инвестиционных проектов с помощью исламских финансовых инструментов, а также анализ его преимуществ и улучшение перспектив развития. В статье также представлены существующие проблемы перспектив развития использования исламских финансовых услуг в экономике нашей страны, а также авторские подходы и предложения по их преодолению.

Ключевые слова: инвестиции, исламские финансы, мушарака, сукук, мудораба, муробаха, финансирование, инвестиционные проекты, исламские финансовые инструменты.

KIRISH

Jahon miqyosidagi global raqobatning kuchayishi istiqbolli soha va tarmoqlarga kiritiladigan investitsiyalar hajmining keskin oshishiga olib kelib, buning ta'sirida investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishga talab ham sezilarli darajada kengayib bormoqda. Jahon miqyosida umumiy aktivlari miqdori 2024-yilga kelib 3,96 trillion AQSh dollariga etishi kutilayotgan islom moliyasi, pandemiya tufayli paydo bo'lgan to'siqlariga qaramay, hukumatlarning qo'llab-quvvatlovchi siyosati hamda islom moliya mahsulotlariga yuqori talab o'laroq ularning moliya bozorlaridagi ishtiroki chuqurlashdi va islom moliya tarmog'i barcha jabhalarda kengayishda davom etmoqda¹. Global pandemiya sharoiti keltirib chiqargan zamonaviy moliya tizimi yangi prinsplar va vositalarni joriy etish asosida milliy moliya bozorlarini diversifikatsiya qilish zarurligini talab qiladi.

O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning istiqboldagi raqobatbardoshligini oshirishning muhim moliyaviy omili sifatida faol investitsiya siyosatini olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikaning sanoat va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlariga yuqori texnologiyalarni keng joriy etish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirish orqali hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, eksportni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish, shuningdek, investitsiyalarni tizimli rejalashtirish va investitsiya loyihalarini samarali boshqarish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturida "markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarni o'zlashtirishning yig'ma maqsadli ko'rsatkichlari 521 603 mlrd. so'mga yetkazishni, shu jumladan, 178 353 mlrd.

¹ www.unctad.org. World Investment Report 2021



AQSh dollari miqdoridagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar o'zlashtirilishi² manzilli dasturi belgilab berilgan. Mamlakatdagi keng ko'lamli islohotlar va faol investitsiya siyosati samaradorligini yanada oshirish, avvalo, investitsiya faoliyatini rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida mukammal tizimli moliyalashtirish mexanizmini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, milliy iqtisodiyotda investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishni yanada takomillashtirish yo'llarini rivojlantirishning zarurligini belgilab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish va uning faoliyati bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar qilingan, kitoblar yozilgan va ta'riflar berilgan. Xususan, so'nggi yillarda islom moliyasi nazariy va amaliy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan islom iqtisodiyoti keng o'rganilayotgan dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Chet ellik olimlar Gait va Uortington "Islom moliyasi deganda shariat tamoyillari asosida amalga oshiriladigan moliyaviy xizmat yoki mahsulot tushuniladi"³, deya ta'kidlashgan. Levis va Algaoudlarning fikriga ko'ra, "islom moliyasining o'ziga xosligini yoki asosini tashkil etuvchi beshta diniy xususiyat mavjud, ya'ni riba (foiz), harom (taqiqlangan) halol (ruxsat etilgan), g'arar (noaniqlik) yoki maysir (qimor), zakot va shariat (islom) kengashi. Islomda moliyalashtirish tushunchasi an'anaviy yoki "G'arb moliyasi"dan farq qiladi"⁴.

Shuningdek, Miraxor va Iqbol "Islomiy moliya tizimini an'anaviy tizimdan farqlash quyidagilarni o'z ichiga oladi: Birinchidan, islom moliya tizimi tenglik, adolatli jamiyat va iqtisodiy tartib uchun intiladi. Islomiy moliya tizimida foizning (riba) taqiqlanishi, ekspluatatsiyadan qochish, narxlarni manirulyasiya qilish orqali foyda olishdan qochish va kambag'allarni (ya'ni qarz oluvchi) himoya qilish uchun mo'ljallangan. Ikkinchidan, islom moliya tizimi hamkorlik va birodarlik tamoyiliga urg'u beradi"⁵. Maxmud va El-Xalifa Muxammadlarning islom banklari tarixini o'rganishga bag'ishlangan asarida islom banklarining to'liq shariatlar me'yoriga asoslanishi, lekin islom tamoyillariga asoslanmagan biznes muhitida uning qo'llanilishi mumkinligi e'tirof etilgan⁶.

Rossiyalik olimlar Bekkin va Kochmolalarning tadqiqotlariga ko'ra, "Islom moliya institutlari to'lig'icha islom qoidalari joriy etilmagan, masalan, Malayziya va Turkiya mamlakatlarida muvaffaqiyatli oreratsiyalarni amalga oshirmoqda"⁷.

So'nggi yillarda Islom moliya tizimi tushunchasi ko'plab mamlakatlar moliyachilarining so'z boyligidan mustahkam o'rin oldi. Darhaqiqat, turli mamlakatlarda, hattoki aksariyat aholisi islom diniga mansub bo'lmagan davlatlarda ham, jumladan, AQSH va Buyuk Britaniyada, ushbu moliyaviy institut an'anaviy bank xizmatlariga muqobil moliyalash tizimi sifatida barqaror rivojlanmoqda. Shuning uchun islom bankchiligini o'rganish global iqtisodiyotda dolzarb mavzu hisoblanadi. An'anaviy bank tizimiga muqobil moliyalash shakllari mavjudligini bilish qiziqarli va foydalidir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlis Palatalariga yo'llagan Murojaatnomasida "Mamlakatimizda Islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati yetib keldi. Bu borada Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi"⁸, deb ta'kidlab o'tdilar.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi O'RQ – 765-sonli Qonunining qabul qilinishi mamlakatimizda islom moliya instrumentlaridan foydalanish tizimini rivojlantirishdagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. Milliy iqtisodiyotimizda islom moliya instrumentlaridan va islom moliya institutlari xizmat turlarini o'rganishdan ko'zlangan maqsad zamonaviy sharoitlarda moliya sektori muammolarini hal qilishda muqobil moliyalashtirish yo'llarini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida investitsiya loyihalarini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish yo'llaridan foydalanish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-72-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi qarori

3 Gait, A. And Worthington, A.. An empirical survey of individual customer, business firms and financial institution attitudes towards Islamic methods of finance, International Journal of Social Economics, 35(11), 2008 y.783-808 p.

4 Lewis M. K. And Algaoud L. M. Islamic Banking. Northampton, Massachusetts, USA: Edward Elgar Publishing Ltd. 2001-y. 253-258 p.

5 Iqbal Z., Mirakhor A. An introduction to Islamic fi nance: theory and practice. Singapore: John Wiley & Sons (Asia) Pte. Ltd., 2011.406 p.

6 El-Gamal Mahmoud A. Islamic fi nance: law, economics and practice. Cambridge University press, 2006 year.222 p.

7 Kochmola K. V. Islamskie finansovye instituty v mirovoy finansovoy arxitekture.Rostov-na-Donu: RGEU "RINX", 2007 g. 368 s.

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>. 2020-yil 29-dekabr.



mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Islom moliya instrumentlari modelining o'ziga xos jihati shundaki, u insonlarning moddiy ehtiyojlaridan tashqari ruhiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini ham inobatga oladi va shu sababli erkin bozor qonunlarini umuman olganda ma'qullasada, jamiyat manfaatlarini ta'minlash hamda bozorda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan bema'nilik va adolatsizlikni oldining olish maqsadida muayyan ma'naviy-axloqiy chegaralar o'rnatadi.

"Nima ishlab chiqarish mumkin?" degan masalaga islom moliya instrumentlari modeli insonning o'zi hamda uning zaruratlari asl mohiyatiga e'tibor qilgan holda yechim beradi va bunda insonning barcha chegara bilmas xohish-istaklarini qanoatlantirish maqsadi qo'yilmaydi.

Islom moliyalashtirish modelining maqsadi ma'naviy mas'ul bozor iqtisodiyoti tizimini yaratish deyish mumkin. Uning o'ziga xos jihatlaridan biri shaxsning va jamiyatning maishatini emas, balki haqiqiy ehtiyojlarini qondirishdir. Islom moliya instrumentlari orqali modeli jamiyat ichida adolatli taqsimlanishiga alohida e'tibor qaratadi, busiz ijtimoiy barkamollik (uyg'unlik) va iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin emas deb hisoblaydi.


Islomiy moliyalashtirish adolatli, kafolatli, axloqiy, barqaror, ekologik va ijtimoiy mas'uliyatli moliyalashtirishdir. Pul bilan ishlashning bunday shakli asosan risklarni taqsimlashga yordam beradi, moliya sektorini real iqtisodiyot bilan bog'laydi va moliyaviy integratsiya hamda ijtimoiy ta'minot muhimligini ta'kidlaydi.

Islomiy moliyalashtirish mamlakat investitsiya faoliyatining rivojlanishiga va moliyaviy integratsiyani kengaytirishga xizmat qiladi.



1-rasm: Investitsiya faoliyatida islomiy moliyalashtirish tamoyillari⁹

Islomiy moliya tuzilishiga ko'ra tijorat va ijtimoiy islom moliyasiga bo'linadi. Islom tirojat moliyasi ham o'z navbatida islom banklari, islom investitsiya fondlari, takoful hamda sukukni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda islom banklari nafaqat musulmon mamlakatlarida, balki nomusulmon mamlakatlarda ham o'zining halol ish faoliyati bilan qiziqish uyg'otmoqda (2-rasm).



2-rasm: Islomiy moliyalashtirish tuzilmasi¹⁰

Mamlakatimizda islom moliya instrumentlarining joriy etilishi xorijiy investitsiyalar hajmining oshishi hamda bank va moliya tarmog'ida shaffof raqobat muhitini yaratish imkoniyatini beradi. Natijada aholining moliya bozorida faolligi oshadi, aholi va tadbirkorlar ixtiyorida bo'lgan bo'sh pul mablag'lari mamlakat iqtisodiyoti rivojlantirishida maksimal ishtirok eta olishi imkoniyati yaratiladi, kapital bozorining rivojlanishiga turtki bo'ladi, yangi

9 Muallif tomonidan tuzildi

10 Introduction to Islamic Banking and Finance Downloaded from www.worldscientific.com by 213.230.102.163.



moliyaviy muassasalar tashkil qilish imkoniyati yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi PQ-4224-son "Islom taraqqiyot banki guruhi va arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida Islom taraqqiyot banki guruhi (ITB) va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari (AMG) bilan uzoq muddatli sheriklikni yanada kengaytirish, shuningdek, ustuvor loyihalarni va ular bilan hamkorlik dasturlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2004-yildan buyon ITB guruhi O'zbekiston Respublikasiga yo'l-transport, energetika va kommunal infratuzilma, qishloq joylarda uy-joy qurilishini modernizatsiya qilish, ichimlik suvi ta'minoti, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarini rivojlantirish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha loyihalarni moliyalashtirish uchun umumiy miqdori 1,9 mlrd. dollar bo'lgan uzoq muddatli kreditlar berildi.

1-jadval: Arab muvofiqlashtirish guruhi mablag'lari hisobidan amalga oshirish uchun taklif etilayotgan investitsiya loyihalari ro'yxati¹¹

№	Loyihaning nomi	Loyiha maqsadi	Loyihaning narxi (mln. doll.)	Kredit summasi (mln. doll.)
Quvayt arab iqtisodiy taraqqiyot jamg'armasi (QAITJ)				
1.	Yangilangan namunaviy loyihalardan foydalangan holda arzon turar-joy binolarini qurish Dasturining infratuzilma qismini birgalikda moliyalashtirish.	Tegishli kommunikatsiya va infratuzilmaga ega namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish hisobiga qishloq aholisining hayot sifatini oshirish.	168,1	30,0
2.	O'zbekiston Respublikasi neyroxirurgiya xizmatini yuqori texnologiyali tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash.	Respublika neyroxirurgiya markazi va respublika hududlaridagi 22 neyroxirurgiya bo'limlarini yuqori texnologiyali uskunalar (1180 dona) bilan jihozlash.	35,0	28,0
Jami:			203,1	58,0
Saudiya taraqqiyot jamg'armasi (STJ)				
3.	Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash.	Uzunligi 56 km (D-250-530 mm) va 8 dona magistral suv quvurini qurish, suv taqsimlash tugunlari, shuningdek, 20 km (D-50-160 mm) taqsimlash tarmoqlari.	26,7	22,5
4.	Qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalardan foydalangan holda arzon uy-joylar qurish dasturi.	Tegishli kommunikatsiya va infratuzilmaga ega namunaviy loyihalar bo'yicha uy-joylar qurish orqali qishloq aholisining turmush darajasini oshirish.	100,0	75,0
Jami:			126,7	97,5
OPEK Xalqaro taraqqiyot jamg'armasi (OPEK jamg'armasi)				
5.	Namangan viloyatining Zarkent, Xojikent, Iskovot, Buloqboshi, Bo'ston, Yoshlik qishloqlari hamda Namangan shahrining ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash.	Yangiqo'rg'on viloyati va Namangan shahrining shimoliy qismi aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlashni ko'paytirish, suv ta'minoti tizimining ishonchligini mustahkamlash, resurslarni tejaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish, "Zarkent" va "Buloqboshi" suv olish inshootlarini qurish, ichimlik suvi, suv quvurlari va tarmoqlarini taqsimlovchi yangi inshootlar. Ichimlik suvidan noratsional foydalanish, uning yo'qotilishi va sizib chiqishini kamaytirish.	75,0	50,0
6.	Urganch shahrining issiqlik ta'minotini rivojlantirish sxemasi.	Issiqlik ta'minoti tizimiga ilg'or texnologiya va uskunalar joriy etish orqali 18 ta qozonxonani rekonstruksiya qilish va modernizatsiya qilish, 2 ta qozonxonani kapital ta'mirlash.	18,0	14,3
Jami:			93,0	64,3

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi PQ-4224-son "Islom taraqqiyot banki guruhi va arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.




Umumiy miqdori

422,8

219,8

Islomiy moliyalashtirish usullarini “yashil” moliya lashtirish, xalqaro fondlar va grantlar kabi innovatsion moliyalashtirish vositalari bilan muvofiqlashtirish barqaror va ijtimoiy mas’uliyatli investitsiya loyihalariga olib kelishi mumkin. Ushbu integratsiya islom moliyasiga axloqiy va ekologik jihatdan ongli ravishda sarmoya kiritish tamoyillariga mos keladi. Shunga asoslangan holda, investitsiya loyihalarining “yashil” moliyalashtirish, xalqaro jamg’arma va grantlar kabi innovatsion moliyalashtirish instrumentlariga muvofiqlashtirilgan holda islomiy moliyalashtirish usullarini qo’llash usullarining rivojlantirish maqsadga muvofiq.



3-rasm: Investitsiya faoliyatini islomiy moliyalashtirish usuli “yashil” moliyalashtirish tizimi¹²

Yashil sukuk: Islom moliya institutlari ekologik toza loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus ishlab chiqilgan shariatga mos obligatsiyalar bo’lgan yashil sukuk chiqarishi mumkin. Ushbu obligatsiyalardan tushgan mablag’lar qayta tiklanadigan energiya loyihalari, barqaror infratuzilma va tabiatni muhofaza qilish harakatlari kabi atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko’rsatadigan tashabbuslarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

Yashil loyihalarni vaqfga asoslangan moliyalashtirish: Vaqf islomiy xayriya jamg’armasi bo’lib, turli ijtimoiy va ekologik tashabbuslarni moliyalashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Yashil loyihalarga bag’ishlangan Vaqf fondlarini tashkil etish orqali resurslar barqarorlik va atrof-muhitni muhofaza qilishni rag’batlantiradigan tashabbuslarga ajratilishi mumkin.

Xalqaro yashil fondlar bilan hamkorlik: Islom moliya institutlari barqaror loyihalarni moliyalashtirishni ta’minlovchi xalqaro yashil fondlar va tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin. Bu hamkorlik islom moliya tamoyillari va ekologik barqarorlik maqsadlariga mos keladigan tashabbuslarni qo’llab-quvvatlash uchun resurslar va tajribalarni birlashtirish imkonini beradi.

Islom moliya vositalari orqali investitsiya faoliyatini moliyalashtirish bo’yicha ilg’or xorijiy tajribani O’zbekistonda joriy etish islom moliya sektorini rivojlantirish va xalqaro investitsiyalarni jalb etishda hal qiluvchi rol o’ynashi mumkin. Bunga erishish uchun ba’zi imkoniyatlar va strategiyalar:

Islomiy moliyani tartibga solish bazasini yaratish:

O’zbekiston islomiy moliya sektorlari yaxshi yo’lga qo’yilgan mamlakatlarning me’yoriy-huquqiy bazasini o’rganish va qabul qilishdan foyda ko’rishi mumkin. Bu shariatga rioya qilish, mahsulotlarni tuzilmalash va risklarni boshqarish bo’yicha aniq ko’rsatmalar yaratishni o’z ichiga oladi.

Xalqaro islom moliya institutlari bilan hamkorlik:

Tashkil etilgan islom moliya institutlari yoki ko’p tomonlama rivojlanish banklari (masalan, Islom taraqqiyot banki yoki Osiyo infratuzilma investitsiya banki) bilan hamkorlik qilish O’zbekistonda islom moliyasini rivojlantirishda texnik yordam, ekspertiza va moliyaviy yordam ko’rsatishi mumkin.

Imkoniyatlarni oshirish va o’qitish:

Mahalliy tartibga soluvchilar, bankirlar va huquqshunoslar uchun o’quv mashg’ulotlari, seminarlar o’tkazish uchun kuchli islomiy moliya sektoriga ega bo’lgan mamlakatlardan ekspertlarni taklif qilish islomiy moliya amaliyotlari bo’yicha tajriba va bilimlarni oshirishga yordam beradi.

Transchegaraviy ekspertizadan foydalanish:

12 Muallif ishlanmasi



Xorijiy islomiy moliya institutlari bilan qo'shma korxonalar yoki sheriklik o'rnatish bilimlarni uzatishni osonlashtirishi va islomiy moliyaviy mahsulotlarni strukturalashtirishda ilg'or tajribalar almashinuvini rag'batlantirishi mumkin.

Bozor tadqiqotlari va texnik-iqtisodiy asoslar:

Xalqaro maslahatchilar ko'magida keng qamrovli bozor tadqiqotlari va texnik-iqtisodiy asoslarni o'tkazish O'zbekistonda islomiy moliyalashtirish samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan muayyan sektor va loyihalarni aniqlashga yordam beradi.

Kichik loyihalar va namoyishlar:

Islomiy moliya vositalaridan foydalangan holda infratuzilma, qishloq xo'jaligi yoki kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish kabi sohalarda kichik loyihalarni joriy etish islom moliyasining afzalliklari va maqsadga muvofiqligini namoyish qilish uchun namunalı misol bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Investor xabardorligi va ta'limi:

Mahalliy investorlar, korxonalar va muassasalar uchun islomiy moliya bo'yicha seminarlar, konferensiyalar va seminarlar tashkil etish islom moliyaviy vositalari va ularning potentsial foydalari haqida xabardorlik va tushunchani oshirishga yordam beradi.

Huquqiy va me'yoriy islohotlar:

Mahalliy qonunlar va qoidalarini xalqaro standartlar va islomiy moliya sohasidagi ilg'or tajribalarga moslashtirish juda muhim. Bunga islomiy moliyaviy operatsiyalar va vositalarni moslashtirish uchun qonunchilik bazasini yangilash kiradi.

Risklarni boshqarish va muvofiqlik:

Chet el tajribasiga asoslangan risklarni boshqarishning mustahkam asoslari va muvofiqlik mexanizmlarini joriy etish O'zbekistonda islomiy moliya sektorining barqarorligi va yaxlitligini ta'minlashga yordam beradi.

Axloqiy va yashil moliyalashtirishni rag'batlantirish:

Axloqiy va yashil moliyalashtirish amaliyotlari bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish islomiy moliyani barqaror va ijtimoiy mas'uliyatli investitsiya tamoyillari bilan uyg'unlashtirishda qimmatli bo'lishi mumkin.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish:

Hukumat O'zbekistonda islomiy moliyani qabul qilish va rivojlanishini rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari yoki tartibga soluvchi yordam kabi imtiyozlar berishi mumkin.

XULOSA

Mazkur mavzu bo'yicha olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi umumiy muammolar va xulosalar shakllantirildi. Xususan, bugungi kunda mamlakatimizda investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishni rivojlantrishda quyidagi muammolar g'ov bo'lib kelmoqda

- islomiy moliyalashtirish sohasidagi aholining moliyaviy savodsizligi muammosi bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, bu muammo hatto aholining asosiy qismi musulmon bo'lgan mamlakatlarga ham xosdir. Shu munosabat bilan normativ-huquqiy bazani tayyorlash va Islom moliya kompaniyalari faoliyati to'g'risida tegishli ma'lumotlarni tarqatish parallel ravishda amalga oshirilishi kerak;
- shariat qoidalarini bo'yicha ishlashda huquqiy xatarlar, shariat tamoyillariga nomuvofiqlik xatari kabi qo'shimcha xatarlarning mavjudligi;
- mamlakatimizda islom iqtisodiyoti infratuzilmalari, eng avvalo, islom moliya instrumentlari asosida moliyalashtiruvchi muassasalar (banklar, investitsiyaviy fondlar, sug'urta kompaniyalari va boshqalar) va muvofiq tarzda kapital bozorining mavjud emasligi;
- aholi omonatlarini himoya qilish tizimining yo'qligi, shuningdek, fiskal, ya'ni soliq va boshqa majburiy to'lovlar bilan bog'liq to'siqlar O'zbekistonda islom moliyasini tatbiq etishga to'sqinlik qilmoqda.

Jahon halol moliya bozori so'nggi besh yil (2017-2022) ichida ikki barobardan ko'proqqa oshdi. Butunjahon halol sammiti kengashi raisi Yunus Etening so'zlariga ko'ra, halol moliya mahsulotlarining ustunlaridan biri bu gigiyenik mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatidir, COVID-19 bozorining tez sur'atda kengayishiga ta'sir ko'rsatdi, sababi odamlarning sog'liqqa va gigiyenik mahsulotlarning kundalik hayotdagi o'rniga munosabatlari o'zgardi va qiziqishlari ortdi. Bu ozodalik, poklik va halol hayot tarzi haqida xabardorlikni, xushyorlikni oshirdi va natijada bu bozor tez o'sa boshladi.

An'anaviy bank pulni daromadi kafolatlangan sotish yoki ijaraga berish mumkin bo'lgan mahsulot sifatida ko'radi, chunki berilgan qarz mablag'larini yo'qotish xavfi juda kam (qarz mablag'lari ham, qarz bo'yicha foizlar ham loyihaning muvaffaqiyati yoki inqirozidan qat'i-nazar doimo kafolatlangan bo'ladi), islom banki esa o'zini biznes bo'yicha hamkordek tutadi va hamkorlikning turiga qarab xavflarni bo'lishadi. Barchaga ma'lumki, agar ikki tomon xatar va yo'qotishlarni o'zaro bo'lishsa, ular moliyaviy amaliyotlarda ehtiyotkorlik bilan ish tutadilar. Shu tariqa, islom moliyasi adolatliroq, moliyaviy barqaror hamkorlik muhiti yaratilishini ta'minlaydi.



O'zbekiston islomiy moliya bo'yicha mintaqaviy habga aylanishi mamlakat iqtisodiyoti rivojiga salmoqli hissa qo'shishiga shubha yo'q. Yuqorida zikr qilingan va boshqa O'zbekiston uchun xos bo'lgan xususiyatlar va imkoniyatlardan samarali foydalanish kerak.

Dunyoda aholi sonining oshishi, resurslar tanqisligi, moliyaviy manbalarning cheklanganligi, migratsiya muammolari, ishsizlik va kambag'allik ko'rsatkichlarining ko'payishi global muammolarga aylanib bormoqda. Muqobil imkoniyatlarni yaratish esa osonlikcha hal bo'ladigan masala emas. O'zbekiston Islom moliyasi habi sifatida bu muqobil moliyaviy xizmatlarni yetkazib beradigan asosiy davlatga aylanishi esa, uning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.unctad.org. World Investment Report 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-72-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini jori etish to'g'risida"gi qarori.
3. Gait, A. And Worthington, A.. An empirical survey of individual customer, business firms and financial institution attitudes towards Islamic methods of finance, International Journal of Social Economics, 35(11), 2008 y.783-808 p.
4. Lewis M. K. And Algaoud L. M. Islamic Banking. Northampton, Massachusetts, USA: Edward Elgar Publishing Ltd. 2001 y.253-258 p.
5. Iqbal Z., Mirakhor A. An introduction to Islamic fi nance: theory and practice. Singapore: John Wiley & Sons (Asia) Pte. Ltd., 2011.406 p.
6. El-Gamal Mahmoud A. Islamic fi nance: law, economics and practice. Cambridge University press, 2006 year.222 p.
7. Кочмола К. В. Исламские финансовые институты в мировой финансовой архитектуре.Ростов-на-Дону: РГЭУ "РИНХ", 2007 г. 368 с.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>. 2020-yil 29-dekabr.
9. Introduction to Islamic Banking and Finance Downloaded from www.worldscientific.com by 213.230.102.163.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi PQ-4224-son "Islom taraqqiyot banki guruhi va arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.